

## BANK TIZIMI MOLIYA TIZIMINING ASOSIY TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Sodiqova N.T.

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi.

Irgasheva Feruza Boltayevna

Osiyo xalqaro universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15075100>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bank tizimining moliya tizimidagi ahamiyati, uning asosiy funksiyalari va tuzilishi tahlil qilinadi. Bank tizimi moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, iqtisodiyotni kreditlash, to'lov tizimini tashkil etish va davlatning pul kredit siyosatini amalga oshirish kabi vazifalarni bajaradi. Ikki darajali bank tizimi – Markaziy bank va tijorat banklari o'zaro uyg'unlikda faoliyat yuritib, moliya tizimining barqarorligini ta'minlaydi. Shuningdek maqolada bank tizimining investitsiyalarni rag'batlantirish, iqtisodiy o'sishga ko'maklashish va pul aylanishini boshqarishdagi o'rni yoritilgan. Bank tizimining samarali faoliyati mamlakat iqtisodiy barqarorligini va moliyaviy rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Markaziy bank, tijorat banklari, pul-kredit siyosati, emissiya litsenziya, investitsiya, derivativ, kredit, depozit, majburiy zahira.

## THE BANKING SYSTEM AS THE KEY COMPONENT OF THE FINANCIAL SYSTEM

**Abstract.** This article analyzes the importance of the banking system in the financial system, its main functions, and structure. The banking system performs tasks such as the effective allocation of financial resources, crediting the economy, organizing payment systems, and implementing the state's monetary and credit policy. The two-tier banking system – the Central Bank and commercial banks – work in harmony to ensure the stability of the financial system. The article also highlights the role of the banking system in promoting investment, supporting economic growth, and managing money circulation. The effective functioning of the banking system is one of the key factors in ensuring the economic stability and financial development of the country.

**Keywords:** Central Bank, commercial banks, monetary and credit policy, emission license, investment, derivatives, credit, deposit, required reserves.

## БАНКОВСКАЯ СИСТЕМА КАК ОСНОВНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ФИНАНСОВОЙ СИСТЕМЫ

**Аннотация.** В данной статье анализируется значение банковской системы в финансовой системе, её основные функции и структура. Банковская система выполняет задачи, такие как эффективное распределение финансовых ресурсов, кредитование экономики, организация платёжных систем и реализация государственной денежно-кредитной политики. Двухуровневая банковская система — Центральный банк и коммерческие банки — работают в согласии для обеспечения стабильности финансовой системы. Также в статье освещена роль банковской системы в стимулировании инвестиций, содействии экономическому росту и управлении денежным оборотом.

Эффективная работа банковской системы является одним из ключевых факторов обеспечения экономической стабильности и финансового развития страны.

**Ключевые слова:** Центральный банк, коммерческие банки, денежно-кредитная политика, лицензия на эмиссию, инвестиции, деривативы, кредит, депозит, обязательные резервы.

---

Bank tizimi har qanday davlat moliya tizimining eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi. U iqtisodiy o'sishni ta'minlash, inflyatsiya (pul qadsizlanishi) va to'lov balansini tartibga solish kabi joriy va ustuvor vazifalarni hal etish uchun foydalaniladi. Jahon amaliyotida moliya-kredit muassasalari tomonidan o'z mijozlariga ko'rsatiladigan xizmatlar xususiyati bo'yicha kredit tizimining uch muhim elementi ajratiladi:

- 1) markaziy bank (emissiya banki);
- 2) tijorat banklari;
- 3) ixtisoslashtirilgan moliya muassasalari (sug'urta, jamg'arma va boshqalar muassasalar).

Demak, mavjud bank tizimlarining o'ziga xos xususiyati, banklar konsentratsiyasi bilan birga, ularning markaziy (emissiya), tijorat, investitsiya, ipoteka, jamg'arma va boshqa bank muassasalari va tashkilotlari shaklida keng ixtisoslashuvi hisoblanadi. Bir tomondan, omonatlarni jalb etish, foydali va ishonchli mijozlar va yuqori daromad olish uchun banklar o'rtasida raqobat yuzaga kelishi, ikkinchi tomondan, banklar 104 faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni kuchaytirishga intilish mana shundandir.

An'anaviy ravishda bank tizimi deganda, u yoki bu davlatda muayyan bir tarixiy davrda mavjud bo'lgan turli shakldagi banklar va bank institutlarining o'zaro bog'liq bo'lgan majmui tushuniladi.

"Bank tizimi" tushunchasi bilan birga, nisbatan keng ma'nodagi "bank-kredit tizimi" tushunchasi ham mavjud bo'lib, u ilmiy va o'quv adabiyotlarida tez-tez uchrab turadi.

Qayd etilgan ushbu tushunchalar o'rtasidagi farq shundan iboratki, gap bank-kredit tizimi haqida ketayotgan bo'lsa, unga banklardan tashqari, ixtisoslashtirilgan moliya muassasalari, masalan: sug'urta, investitsiya va boshqa institutlar ham kiritiladi, lekin ular ayrim bank operatsiyalarini amalga oshirsa ham, bank maqomiga ega emas.

Banklar va boshqa turli investitsiya institutlari (jamg'armalar, kompaniyalar) bilan birga, O'zbekiston bank kredit tizimiga kirgan moliya muassasalari qatoriga kredit uyushmalari ham kiradi. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 4-apreldagi "Kredit uyushmalari to'g'risida" Qonuniga muvofiq, ular yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan teng huquqli ixtiyoriy a'zolik asosida kreditlar berish maqsadida tuziladi. Biroq banklardan farqli ravishda kredit uyushmasi kredit operatsiyalarini faqat shunday uyushma doirasidagina amalga oshirishi mumkin.

Ko'rsatilgan qonunchi hujjatining 10-moddasiga muvofiq kredit uyushmasi: o'z a'zolaridan depozitlarga pul mablag'larini jalb qilish; o'z a'zolariga kredit berish huquqiga ega.

Ayrim davlatlar va xususan, Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida o'z maqomi bo'yicha banklarga kirmagan moliya muassasalari "bank hisoblanmagan kredit tashkiloti" atamasi bilan belgilangan. Ularga Banklar va bank faoliyati to'g'risida Rossiya Federal qonunida nazarda tutilgan faqat ayrim bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqi berilgan. Bunda belgilab qo'yilganki, bank hisoblanmagan kredit tashkilotlari uchun yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan bank operatsiyalari Rossiya Banki tomonidan belgilab beriladi. Yuqorida qayd etilganidek, bank maqomiga ega bo'lgan kredit tashkilotlari uchun bunday huquq to'g'ridan to'g'ri qonunda nazarda tutiladi va shu sababli bu yerda boshqa qo'shimcha ruxsatlar talab qilinmaydi.

Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda bank tizimlari turli tarkibiy tuzilmaga ega, shu bilan birga, ularga umumiy xususiyatlar ham xos. Joylarda bank tizimi markaziy bank va tijorat banklaridan iborat.

Jahon amaliyotida bank tizimining ikki asosiy modeli foydalaniladi: bu, birinchidan, **segmentlangan** va, ikkinchidan, **universal** bank tizimlaridir.

Bank tizimining **segmentlangan** modeli operatsiya faoliyati bilan ayrim turdagi moliya tashkilotlarining funksiyalarini qonunchilik bilan qat'iy ajratilishiga asoslanadi. Bunday model, masalan, AQSH va Yaponiya bank tizimi uchun xosdir.

**Universal** modelda banklar va boshqa kredit tashkilotlari har qanday turdagi bank operatsiyalarini amalga oshirishi va mijozlarga barcha turdagi xizmat turlarini ko'rsatishi mumkin.

Ushbu holda qonun operatsiyalarning ayrim turlarini amalga oshirishda qandaydir cheklashlarni nazarda tutmaydi. Bank tizimining bunday modeli, masalan, Buyuk Britaniya uchun xos.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi ko'rsatilgan ikkala modelning xususiyatlarini o'z ichiga qamrab olgan. Bir tomondan, mamlakatimiz bank qonunchiligi banklar faoliyati sohasini qat'iy belgilab, bank operatsiyalarining aniq turlarini belgilab beradi va ularning majmui bank faoliyati mazmunini tashkil etadi. Ikkinchi tomondan, qayd etilganidek, banklarga operatsiyalarning boshqa turlarini ham amalga oshirish uchun ruxsat berilib, ularning ro'yxati Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunda nazarda tutilgan. Bunda shuni qayd etish lozimki, bu ro'yxat ochiq, chunki qonunda xalqaro bank amaliyotiga muvofiq ravishda boshqa operatsiyalar amalga oshirilishiga ham yo'l qo'yiladi. Ammo buning uchun litsenziyada maxsus kelishib olingan bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi hozirgi vaqtda bozor iqtisodiyotining rivojlanishi ehtiyojlari bilan belgilangan tub o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Bu o'zgarishlar mamlakatimiz bank tizimi tarkibiy tuzilmasiga ham, uning funksional yo'nalishlariga ham o'zining ta'sirini o'tkazayпти.

O'zbekiston bank tizimida yuz bergan o'zgarishlar bank qonunchiligida mustahkamlangan bo'lib, ular bozor munosabatlari tizimida banklarning mohiyati va vazifalari to'g'risida chet el tajribasi va hozirgi zamon tasavvurlariga asosan ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi "Bank va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra bank – bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish, to'lovlarni amalga oshirish, omonatlarga (depozitlarga) pul mablag'larini jalb etish, o'z nomidan kreditlar berish bo'yicha bank faoliyati sifatida aniqlangan operatsiyalar majmuini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxs hisoblanadi.

Banklar tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar jumlasiga quyidagilar kiradi:

pul mablag'larini omonatlarga (depozitlarga) jalb etish;

to'lovlarni amalga oshirish, shu jumladan bank hisobvaraqlarini ochmasdan amalga oshirish;

jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan, banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish;

kreditlarni ularning qaytarilishi, foizlilik va muddatlilik sharti bilan o'z nomidan o'zining mablag'lari hamda jalb etilgan mablag'lar hisobidan berish;

chet el valyutasi bilan naqd va naqdsiz shakllardagi operatsiyalar;

jismoniy yoki yuridik shaxs bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha mol-mulkni ishonchli boshqarish;

inkassatsiya va kassa xizmatlarini ko'rsatish; uchinchi shaxslar nomidan ularning majburiyatlari bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish va boshqa majburiyatlarni qabul qilish;

uchinchi shaxslardan pul shaklidagi majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish (faktoring);

qimmatli qog'ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;

qimmatbaho metallardan yasalgan tangalarni sotib olish va sotish; hosilaviy moliya vositalari (derivativlar) bilan operatsiyalarni amalga oshirish;

hujjatlarni yoki qimmatliklarni saqlash uchun maxsus binolarni yoki ularning ichidagi seyflarni ijaraga berish;

lizing berish;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan shakllarda qarzlar berish;

moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liq maslahat xizmatlari ko'rsatish; aktivlar majmuini (portfelini) boshqarish;

elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va to'lash;

bank kartalarini berish va to'lovlarga ishlov berish, bank kartalariga boshqa tashkilotlar, jumladan, boshqa moliya institutlari bilan birgalikda xizmat ko'rsatish.

Banklar banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa moliyaviy operatsiyalarni ham amalga oshiradi.

Banklar bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyada ko'rsatilmagan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga haqli emas.

Markaziy bank nazoratga doir vazifalarni amalga oshirish maqsadida:

banklardan, ularga aloqador shaxslardan va o'z nazorati ostidagi shaxslardan, bank tomonidan outsorsingga berilgan xizmatlar va operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslardan olingan hisobotlarni, shuningdek, boshqa hujjatlarni olish va tekshirishga, axborotga tushuntirish berishni talab qilishga;

banklarning, bank tomonidan outsorsingga berilgan xizmatlar va operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslarning, shuningdek, konsolidatsiyalashgan asosda nazorat qilinishi lozim bo'lgan boshqa shaxslarning faoliyatini tekshirishga;

banklarning axborot tizimlaridan va ma'lumotlar bazasidan foydalanishga haqlidir.

Yuqorida keltirilgan Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunning 3-moddasidan kelib chiqadiki, bank tushunchasi bank faoliyati – bank hisobvaraqlari ochish va xizmat ko'rsatish, omonatlarni qabul qilish, kreditlar berish, to'lovlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan bank operatsiyalari majmuyi mohiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu ta'rifdan shunday xulosa kelib chiqadiki, bank faoliyatining asosiy belgisi, moliya bozoridagi boshqa faoliyat turlaridan farqli ravishda, barcha ko'rsatilgan operatsiyalarni yagonalikda amalga oshirish majburiyigidir.

Bank faoliyati litsenziyalanadigan tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi. Litsenziyasiz amalga oshiriladigan bank faoliyati g'ayriqonuniy deb hisoblanadi va javobgarlikka sabab bo'ladi.

Bunday faoliyat natijasida olingan daromad O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga olib qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy huquqiy maqomi, vakolatlari, vazifalari, faoliyatini tashkil etish O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonun hamda boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Markaziy bank yuridik shaxs bo'lib, u davlatning mutlaq mulkidir va o'z xarajatlarini o'zining daromadlari hisobidan amalga oshiradi.

Markaziy bank o'z vakolatlari hamda vazifalari doirasida davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa organlaridan mustaqil ravishda qarorlar qabul qiladi.

Markaziy bank faoliyatining asosiy maqsadlari:

- narxlarning;
- bank tizimining;
- to'lov tizimlari ishlashining barqarorligini ta'minlashdan iboratdir.

Markaziy bankning bank tizimi barqarorligini ta'minlash bo'yicha faoliyati narxlarning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

Foyda olish Markaziy bankning maqsadi hisoblanmaydi.

Markaziy bank:

pul-kredit siyosatini, shu jumladan, valyuta siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasida inflyatsiya darajasini monitoring, tahlil va prognoz qiladi, tegishli axborot materiallarini hamda statistik ma'lumotlarni e'lon qiladi;

O'zbekiston Respublikasining to'lov balansini, xalqaro investitsiyaviy mavqeyini, tashqi qarzini va zaxira aktivlarini o'z ichiga olgan bank, pul-kredit statistikasini, tashqi sektor statistikasini shakllantirishni hamda e'lon qilishni amalga oshiradi;

• har yili O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga Davlat budjeti loyihasini tayyorlashga doir tavsiyalarni o'z ichiga olgan iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo'yicha axborotni taqdim etadi;

- naqd pul muomalasini tashkil etadi;
- valyutani tartibga solishni va valyutani nazorat qilishni amalga oshiradi;
- valyuta operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi, statistik hisobotlar va boshqa

hisobotlar maqsadlari uchun, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida bojxona hamda boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish uchun valyuta kursini muntazam ravishda belgilab boradi;

- banklarni va kredit byurolarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiradi;
- banklarning, mikrokredit tashkilotlarining, lombardlarning, to'lov tashkilotlarining, to'lov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarining, kredit byurolarining faoliyatini va qimmatli qog'ozlar blankalarini ishlab chiqarishni litsenziyalaydi, shuningdek, kredit tashkilotlarining, to'lov tashkilotlarining, to'lov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarining, kredit byurolarining va banklar guruhlarining faoliyatini tartibga soladi hamda ushbu faoliyat ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Tijorat banklari huquqiy maqomining asoslari. Banklar aksiyadorlik jamiyati tarzida tashkil etiladi. Tijorat banklarining asosiy tashkiliy-huquqiy shakli sifatida aksiyadorlik jamiyatini belgilash boshqa jamiyatlar (mas'uliyati cheklangan jamiyat yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat, to'liq yoki kommandit shirkat)ga nisbatan katta afzalliklarga ega. Bu afzalliklar sarmoya (kapital)larni jalb etishning nisbatan keng imkoniyatlarga ega ekanligi, aksiyadorlarning o'z huquqlarini amalga oshirishda ko'proq qayishqoqligi, boshqa shakllarga nisbatan barqarorligidan iborat.

Xususiy bank va moliya institutlari ustav fondida (ustav kapitalida) muassislar (ishtirokchilar) bo'lgan jismoniy shaxslarning ulushi kamida ellik foizni tashkil etishi lozim bo'lgan banklar va boshqa kredit tashkilotlari, sug'urta tashkilotlari, shuningdek, faqat moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi o'zga yuridik shaxslardir. Xususiy bank va moliya institutlari tadbirkorlik subyektlaridir.

Banklar Markaziy bankda ro'yxatdan o'tkazilib, litsenziya olganidan keyingina bank operatsiyalarini amalga oshirishi va yuridik shaxs maqomini olishi mumkin. Banklarni ro'yxatdan o'tkazish va litsenziyalashning huquqiy asoslari "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 2-bobida belgilangan bo'lib, ular Markaziy bankning maxsus normativ hujjatida o'zining aniq ifodasini topadi.

Banklar Markaziy bankda davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomini oladi. Banklar O'zbekiston Respublikasida o'z faoliyatini Markaziy bank tomonidan beriladigan, bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya asosida amalga oshiradi.

Litsenziya uning amal qilish muddati cheklanmagan holda beriladi. Litsenziyani yoki unga doir huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish taqiqlanadi.

Litsenziyasiz amalga oshiriladigan bank faoliyati g'ayriqonuniy deb hisoblanadi va javobgarlikka sabab bo'ladi. Bunday faoliyat natijasida olingan daromad O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga olib qo'yiladi. Litsenziya berish yuzasidan qaror qabul qilishda quyidagilar asosiy omil bo'lib hisoblanadi:

- bankni tashkil etish bo'yicha biznes rejaning maqbulligi;
- bank ustav kapitalining yetariligi va qonun hujjatlariga muvofiq shakllantirilganligi;
- daromadlilikning istiqbollari;
- tashkil etilayotgan bank rahbarining malakasi va obro'si;
- bankni tashkil etish uchun taqdim etilgan hujjatlarning qonun hujjatlariga muvofiqqligi;
- monopoliyaga qarshi choralarning mavjudligi.

Bankni davlat ro'yxatiga olishni va litsenziya berishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

Bankning shakllantirilgan ustav kapitali miqdorining bankni davlat ro'yxatiga olish va litsenziya berish to'g'risidagi arizani topshirish paytida ushbu qonun talablariga muvofiq emasligi;

muhim ahamiyatga ega xodimlarning Markaziy bankning malaka talablariga muvofiq emasligi;

bankning binolari, ularning muhofaza qilinishi ta'minlanganligi, uskunalar va ishlarni tashkil etish texnika vositalari bilan jihozlanganligining va dasturiy ta'minotining Markaziy bank talablariga muvofiq emasligi sababli rad etilishi mumkin.

Bugungi kunda moliyaviy faoliyatlarning asosi, davlatlar o'rtasidagi aloqalarning poydevori va umumbasharning iqtisodiy asoslarini tashkil qiluvchi pul muomalasi bank va ularning faoliyati orqali tartibga solinadi. Bank siri uni tashkil etuvchi omillarga to'xtalishdan oldin bank faoliyatini kelib chiqish tarixi va nima uchun 2 ta jahon urushi davrlarida bank sirining ahamiyati ortganligi va nima uchun Shveysariya yoki Lyuksemburg kabi davlatlarda bank faoliyatiga va shaxslarning bankka bo'lgan ishonchi yuqori ekanligiga to'xtalib o'tsak.

Zamonaviy bank faoliyatiga M. Rotshild tomonidan asos solinib moliyaviy ishlarning sirini, foydali valyuta kurslarini aniqlashni joriy etgan. Dastlab u Frankfurtda turli davlat tangalari, medallarini ayirboshlovchi xususiy do'kon ochadi keyinchalik esa xususiy bankini ochadi. Bank urush vaqtida ko'plab davlatlarga qarz beradi va bankning asosi bo'lgan qarz orqali foyda olish prinsipini amaliyotga kiritadi hamda berilgan qarzlarni va qo'yilgan omonatlar haqida hech bir shaxsga va davlat organlariga ma'lumot bermaslik haqida kafolat beradi.

Bu esa birinchi bank va uning faoliyati haqidagi sirlarning hech kim bilan bo'lishmasligi qoidasini joriy etadi.

Shveysariyada 1700-yillarning boshlarida bank siri va mijozlar maxfiyligi haqidagi qoidalar joriy etilgan bo'lib, boy Yevropa bank manfaatlarini himoya qilish usuli sifatida boshlangan va 1934-yilda Shveysariyada bank sirini ta'minlash maqsadida "Banklar va jamg'arma kassalari to'g'risida"gi Federal qonun qabul qilingan bo'lib, bugungi kunda dunyo miqyosida mazkur davlat bank faoliyatini olib boruvchi mamlakat hisoblanadi.

Xo'sh, mamlakatimizda bank va banklar faoliyati moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish, mijozlarning maxfiyligini saqlash qachon boshlangan.

Dastlab 1996-yil 25-aprelda bank faoliyatini tartibga soluvchi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun bu qonun keyinchalik, ya'ni 2019-yilda yangi tahrirda qabul qilingan bo'lib, unga asosan bank tushunchasi, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish va boshqa tushunchalar berilgan.

Bank faoliyati tartibga solish va va mijozlarning maxfiyligini saqlash uchun asos sifatida dastlab O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-mayda qabul qilingan "Davlat sirini saqlash to'g'risida"gi Qonunni keltirib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi, unga ko'ra davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va birlashmalar, O'zbekiston Respublikasining harbiy tuzilmalari va fuqarolarining respublika hududidagi hamda uning tashqarisidagi faoliyatining barcha turlarida davlat sirlarini tashkil etishi ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 786-moddasida va O'zbekiston Respublikasi "Bank siri to'g'risida"gi Qonunda bank siri tushunchasi berilgan. Banklar mijozlarning hisob raqamlarini, bank qo'yilmalarini, operatsiyalarini va mijoz haqidagi ma'lumotlarni sir saqlashini kafolatlaydilar. Bank siri hisoblangan ma'lumotlar faqat mijozlarning o'zlariga yoki ularning vakillariga beriladi. Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslariga bunday ma'lumotlar faqat qonunda ko'rsatilgan hollardagina beriladi. Bank tomonidan mijozning bank siri ma'lumotlari oshkor qilingan hollarda, huquqi buzilgan mijoz bankdan yetkazilgan zararni qoplashini talab qilishga haqqi borligi ta'kidlangan.

## REFERENCES

1. Qudratova, G. M. (2025). INNOVASION MARKAZLAR: RIVOJLANISHI, TAQQOSLAMA TAHLIL VA KELAJAKDAGI TENDENSIYALAR. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(7), 98-104.

2. Sodiqova, N. (2023). A POLITICAL ECONOMY ANALYSIS OF ECONOMIC SECURITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 559-568.
3. Bahodirovich, X. B. (2025). XO'JALIK MUOMALALARI TA'SIRIDA BALANSDA SODIR BO'LADIGAN O'ZGARISHLAR. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(6), 356-361.
4. Бахтиёров, Д., & Алимова, Ш. А. (2025). КОНКУРЕНЦИЯ НА РЫНКЕ: КАК БОРЬБА КОМПАНИЙ ВЛИЯЕТ НА ЦЕНЫ, КАЧЕСТВО И ИННОВАЦИИ. *Modern Science and Research*, 4(2), 463-471.
5. Hakimovich, T. M. (2025). KORXONALARDA RAQOBATBARDOSH EKSPORTNI YO'LGA QO'YISH VA MARKETING STRATEGIYALARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 193-205.
6. Azimov, B., & Hamidov, A. (2025). THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF MANAGING ORGANIZATIONAL COSTS IN THE ECONOMIC SECURITY SYSTEM. *Journal of Applied Science and Social Science*, 1(1), 356-363.
7. IKROMOV, E. (2025). THE TAX SYSTEM OF UZBEKISTAN AND ITS FEATURES. *Journal of Applied Science and Social Science*, 1(1), 240-246.
8. Raxmonqulova, N. O. (2025). SAMARALI RAHBARNING XUSUSIYATLARI, LIDERLIK USULLARI VA ULARNING TASHKILOT MUVAFFAQIYATIGA TA'SIRI. *Science, education, innovation: modern tasks and prospects*, 2(1), 29-35.
9. Shadiyev, A. X. (2025). MINTAQANING IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(7), 145-150.
10. Supiyevna, B. M. (2025). XUSUSIY TADBIRKORLIKDA MEHNAT MOTIVATSIYASINI OSHIRISH YO'LLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(7), 126-132.
11. Naimova, N. (2025). CLASSIFICATION OF INTERNATIONAL MARKETING STRATEGIES EXISTING APPROACHES. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 683-688.
12. Jumayeva, Z. (2025). A NEW THEORY OF ECONOMIC GROWTH: AN EVOLUTIONARY APPROACH. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 869-873.
13. Bobojonova, M. (2025). PRICE LEVELS IN THE GREEN ECONOMY AND THEIR APPLICATION. *Journal of Applied Science and Social Science*, 1(1), 109-117.

14. Jumayeva, Z. (2025). THE ROLE OF TRADE POLICY IN ENSURING THE COMPETITIVENESS OF THE NATIONAL ECONOMY: MODERN APPROACHES. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 483-488.
15. Ibragimov, A. (2025). PROSPECTIVE WAYS OF ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT TO THE NATIONAL ECONOMY. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 137-143.
16. Djurayeva, M. S. (2024). BASICS OF DIGITAL MARKETING. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 153-159.
17. Bahodirovich, X. B. (2025). BUXGALTERIYADA QIMMATLI QOG'OZLAR HISOBİ. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(7), 407-411.
18. Raximova, L. (2025). THE IMPACT OF THE SHADOW ECONOMY ON THE ECONOMY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 585-590.
19. Igamova, S. (2025). THE UZBEK ECONOMIC MODEL. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 857-868.
20. Xasanova, G., & Qurbonova, X. (2020). WAYS TO PROMOTE INTEGRATED COLLABORATION OF HIGHER EDUCATION AND VOCATIONAL COLLEGES IN ECONOMIC MODERNIZATION. *Интернаука*, (7-1), 66-69.
21. Soliq huquqi. –T. TDYU, 2017. 283 b.